

OROL BO'YI MINTAQASIDA 1960-YILLARIDAN 2022-YILLGACHA BO'LGAN O'ZGARISHLAR HAMDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR TAHLILI

Xudoyqulova Ruqiya Rahimberdiyeva

Qashqadaryo viloyati Koson tumani 94-maktabning geografiya fani o'qituvchisi

Annatsiya: ushbu maqolamizda Orol bo'yi mintaqasida o'tgan asrning 60- yillaridan va hozirgi kungacha yuz bergan salbiy hamda ijobiy o'zgarishlar shuningdek Orol bo'yi mintaqasida yashovchi xalqlar hayot tarzini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlarimizda belgilangan vazifalar tahlili haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qum barhanlari, tuz, yashil belbog', suvsizlik, islohot, nav, satx, chuqurlik, sho'rlanish, ekologiya, changlanish.

Annatsiya: This article discusses the negative and positive changes that have taken place in the Aral Sea region since the 1960 s and to date, as well as the analysis of the tasks set in our state programs to improve the living standards of the peoples living in the Aral Sea region.

Key words: sand dunes, salt, green belt, drought, reform, variety, level, depth, salinity, ecology, pollination.

Аннотация: В данной статье рассматриваются негативные и позитивные изменения, произошедшие в Приаралье с 1960-х годов и до настоящего времени, а также анализ задач, поставленных в наших государственных программах по повышению уровня жизни народов, проживающих в Приаралье. область, край.

Ключевые слова: песчаные дюны, соль, зеленый пояс, засуха, реформа, разнообразие, уровень, глубина, засоление, экология, опыление.

Barchaga ma'lumki bugungi kunda Orol dengizi o'zining geogragik jihatdan dengiz misolidagi o'rni tom ma'noda yo'qotib, o'rnini qum barhanlariga bo'shatib berayotganligini bugun barchamizga sir emas. O'z vaqtida O'rta Osiyodagi eng yirik ko'l sifatida qaralgan ushbu ko'ldan bugungi kunda deyarli juda oz qismigina saqlanib qolgan xolos. Hozirgi kunga ushbu Orol bo'yi mintaqasida yashayotgan insinlar hayot tarzini yaxshilash hamda Orol bo'yi hududida suvsizlikga chidamli bo'lgan o'simlik turlarini yanada ko'proq ekish davlatimiz oldiga qo'ygan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining olib borayotgan keng ko'lamli islohotlari taqsiqsa sazovordir.

Avvalo, Orol fojiiyasi oqibatini yumshatish bo'yicha boshlagan misli ko'rilmagan ishlarimizni davom ettirib, dengizning qurigan tubida o'rmon zonalarini kengaytirish, Nukus, Urganch va Xiva shaharlari atrofida "yashil belbog'lar barpo etishimiz lozim.

Orol muammosini hal etishda xalqaro xalqaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkeloti bilan tuzilgan Orol dengizi mintaqasida inson xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama trust fondiga ishonch bilan



qaraymiz¹. Prezident Shavkat Mirziyoyev Orol dengizining qurigan joyiga borib, vaziyatni ko'rdi. Prezidentimiz bu yerda ekologlar va o'rmon xo'jaligi mutaxassislari bilan suhbatlashib "Biz shu murakkab sharoitda ekish bo'yicha katta tajriba orttirdik. Bu yerga o'zim kelishimdan maqsad - endi bu ishlarni ilmiy asoslangan tarzda davom ettiramiz", - dedi Shavkat Mirziyoyev.²

Ilmiy izlanishlar qilib, hudud tuprog'iga mos navlar yaratish, keyingi bosqichda chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Orolbo'yining flora va faunasini yaxshilash bo'yicha 5 yillik milliy dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Orol bo'yi mintaqasida suvsizlikga chidamli bo'lgan o'simlik navlarini ko'paytirish bo'yicha ham topshiriqlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.10.2020 yildagi PQ-4850-son qarori, "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaliklar tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qarori esa bu maqsadlarni strategik ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Keling endi Orol dengizining aslida qanday bo'ganligi xususida ozgina tarixga to'xtalib o'tsak. Ma'muriy jihatdan Orolning yarmidan ko'proq janubiy-g'arbiy qismi O'zbekiston (Qoraqalpog'iston) hududiga, shimoliy-sharqiy qismi esa Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarigacha Orol maydoni o'zining orollari bilan o'rtacha 68,0 ming km² ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin), Yevrosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o'rinda edi. Dengiz shimoliy sharqdan janubiy g'arbga cho'zilgan, uzunligi 428 km, eng keng joyi 235km (45° sh.k.) bo'lgan. Havzasining maydoni. 690 ming km², suvining



hajmi 1000 km³, o'rtacha chuqurligi 16,5 m atrofida o'zgarib turgan. Havzasining kattaligi uchun uni dengiz deb atashgan. Orol yuqori plitsenda yer po'stining egilgan yeridagi botiqda hosil bo'lgan. Tubining relefi (g'arbiy qismini hisobga olmaganda) tekis. Orol dengizda o'z davrida juda ko'p yarim orol va qo'ltiqlar bo'lgan. Sirdaryoga quyilish joylarida Ajiboy, Tolliq, Jiltirbas qo'ltiklari, Qulonli va Mo'ynoq yirik yarim orollari bo'lgan. Orol dengizida qadimdan suv sathi goh ko'tarilib, goh pasayib turgan. Keyingi geologik davrda Sariqamish va O'zbo'y orqali Orol dengizining suvi vaqt-vaqti bilan Kaspiy

dengizga quyilgan. Orol dengizi unchalik chuqur bo'lmagan. Eng chuqur joylari g'arbiy qismida. Qoraqalpog'iston Ustyurta yonida chuqurligi 69 metrgacha yetgan.³

Orol dengizida 1965-yilgacha Aralsk, Mo'ynoq, Xo'jayli, Chorjo'y o'rtasida yo'lovchi va yuk tashuvchi paroxodlar qatnagan. 20 asr o'rtalarida Orol bo'yida 10 ta baliq zavodi va baliq konservalash kombinati ishlagan. Orol dengizidan yiliga 450 ming sentnergacha baliq ovlangan. 1981-yilda Amudaryoda kema va parom qatnovi to'xtatilgan. Orol dengizining yuz km dan ko'proq ichkariga chekinishi natijasida kemalar quruq qum ustida qolib ketdi. 20 asr o'rtalarida Orol bo'yida umurtqali hayvonlarning 178 turi, o'simliklarning 1200 turi aniqlangan. Amudaryo qirg'oqlaridan yiliga 1 mln dan ortiq ondatra mo'ynasi tayyorlangan.

¹ Sh.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi 24.12.2020 yil

² Sh.Mirziyoyevning Orol dengizining hududiga qilgan tashrifi 23.02.2022 yil

³ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi O harfi 225 b 2001 y

O'tgan asrning 90-yillarga kelib, mo'yna tayyorlash butunlay barham topdi. Tuproqning kuchli sho'rlanishi oqibatida qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish bir necha marta kamayib ketdi. Yerlarning sho'rlanishi, turar joylar, ma'muriy binolar va asfaltlangan yo'llarga katta ziyon keltirmoqda. 1986-yilda 78 % turar joylar foydalanishga yaroqsiz bo'lib qolgan. Bu halokat ichimlik suvlarni ifloslantirib, aholi o'rtasida kasallikni kuchayishiga olib keldi. Amudaryo va Sirdaryo suvidan foydalanishda yo'l quyilgan xatoliklar Orol bo'yida ekologik falokatni keltirib chiqargan.

Orol dengizining suvi qurishi natijasida so'nggi yillarda ekologik muhit va tabiiy muvozanat buzilib, iqlim salbiy tomonga o'zgarib bormoqda. Ushbu hududlardan qum, tuz va changlarning havoga ko'tarilishi va atrof-muhitga yog'ilishi natijasida Orolbo'yi mintaqasi hududida yashovchi aholiga, o'simlik va hayvonot dunyosiga jiddiy zarar yetmoqda. Qishloq xo'jaligi ekinlari, bog' va tokzorlar ekilgan yerlarda ikkilamchi sho'rlanishlar kuchayib, hosildorlikka salbiy ta'sir qilmoqda. Orol dengizining qurishi, ayniqsa, mintaqa xalqlarining eng dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, dengiz qurishi va sho'rlanishning tezlashuvi oqibatida so'nggi yillarda 50 ming gektarga yaqin ekin maydoni qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqsiz bo'lib qoldi. Qurigan dengiz o'rnida 5,5 million gektardan ortiq



maydonni egallagan "Orolqum" sahrosi paydo bo'ldi. Ushbu ekologik talafotning zudlik bilan oldini olish choralari ko'rilmasa, natijasi salbiy va hisoblab bo'lmaydigan darajada ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy zararlarga sabab bo'ladi. Orol tuzini Arktikada ham topishgani haqidagi xabarlar bor.⁴ Orol dengizining suvi qurigan tubidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining salbiy ta'sirini kamaytirish, ushbu hududlarda cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamalar" — himoya o'rmonzorlari barpo etishni samarali tashkil etish hamda global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi va aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ro'yobga chiqarish maqsadida bugungi kunga kelib ko'pgina ishlar amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida Orol dengizi muammosiga alohida e'tibor berilib, qumni qotiruvchi, tuproqning tuzilmasini yaxshilab, uning unumdorligini oshiruvchi kimyoviy birikmalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu yo'nalishidagi ilmiy izlanishlar yuqori darajada tashkil etilib, keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi va muayyan natijalarga erishildi. Xususan, mahalliy xomashyo asosida sintez qilingan, tarkibida azot, fosfor va boshqa mikroelementlarni saqlagan kimyoviy barqaror, mexanik mustahkam struktura hosil qiluvchi polimer reagentlar tadqiqotiga qaratilgan ilmiy ishlar kun sayin amalga oshirilib bormoqda. BMT Bosh Assambleyasining 75- sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Orolbo'yi hududini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilishni taklif etdi. Tashabbus global miqyosda qo'llab-quvvatlandi va joriy yilning may oyida BMT Bosh Assambleyasida bir ovozdan tegishli rezolyutsiyani ma'qulladilar. Shu

⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/16/aral/#!>

bilan birga, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun ekologik falokat hududining hozirgi ahvoli, u yerda yuz berayotgan o'zgarishlar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish kerak. Shu munosabat bilan, BMTning O'zbekistondagi Orolbo'yi hududi uchun inson xavfsizligi bo'yicha Ko'psheriklik trast fondi moliyalashtirayotgan YUNESKO bilan birgalikdagi "Barqaror qishloq hududlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali Orolbo'yi mintaqasida inson xavfsizligining dolzarb muammolarini hal qilish" Qo'shma dasturi doirasida 2019 yilning kuzida va 2020 yilning bahorida Markaziy Osiyoning davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi Ilmiy-axborot markazining ikkita ekspeditsiyasini qo'lladi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil sarhisobi bo'yicha Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida mintaqamizda, butun dunyoda ekologik vaziyatning tobora yomonlashib borayotganiga jiddiy tashvish bildirilib, bu masalada qo'shni davlatlar va jahon jamoatchiligi bilan birgalikda Orol dengizi ekologik fojiasi ta'sirini yumshatishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qat'iy davom ettirish zarurligi qayd etildi. "Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda tuzilgan Orolbo'yi mintaqasida inson xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama Trast fondi doirasidagi amaliy ishlarni yanada kuchaytiramiz", deya ta'kidlandi. Darhaqiqat, Orol dengizi qurishi nafaqat mintaqamiz, balki global darajadagi ekologik ofat markaziga aylandi. BMT ning 72-cessiyada ham muhtaram Prezidentimiz bu masalani kun tartibiga alohida qo'yan edilar. O'shanda tarixda birinchi bor, BMT oliy minbarida Prezidentimiz Orol dengizining xaritasini butun jahon hamjamiyatiga ko'rsatib, muammoning nechog'li chuqur va naqadar murakkab ekanligini kuyunchaklik bilan ochib bergan edilar. Ushbu sayi harakatlari natijasida 2019- yili 18 may kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyutsiya bir ovozdan qabul qilindi.

2017-yilda Orolbo'yi mintaqasi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trast fondi tuzilgan bo'lib, u og'ir ekologik hududda yashayotgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish uchun xalqaro hamjamiyatning tayanch platformasi bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur fondga Norvegiya, Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi, Germaniya, BAA, Turkiya, Shveysariya kabi davlatlar donorlik yordamlarini ko'rsatib, katta qiziqish bildirayotgani uning istiqboli katta ekanligini ko'rsatadi. Biroq ochig'ini aytish kerak, ayni paytda asosiy ishlar O'zbekistonning o'z zimmasiga tushmoqda, misli ko'rilmagan ishlarga ketayotgan xarajatlar asosan, respublika va mahalliy byudjet va xayriya mablag'laridan qoplab kelinmoqda. 2017-2021-yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi, shuningdek Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan Orol dengizi havzasi va Orolbo'yi mintaqasida, unga yondosh Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida "yashil belbog'" yaratish bo'yicha tizimli ishlar olib borildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi birinchi jild 2000 yil
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4850-son qarori 06.10.2020 yildagi
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlisga murojaatnomasi 2020-yil
- 4.Reclaming the Aral Sea,Scientific American,mart,2008
- 5.Geografiya fan darsliklari

www.prezident.uz

<http://www.ntsomz.ru/projects/eco/econews/271108b>

<http://www.falsafa.dc.uz>.

